

Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish

SAVOLLAR

1. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining aholini oziq-ovqat, chorvani yem-xashak va sanoatni xom-ashyo bilan ta’minlashdagi o‘rni.
2. O‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun va uni ahamiyati deganda nimani tushunasiz?
3. G‘alla mustaqilligi nima va u bizga nima uchun kerak?
4. Respublikamizda paxtachilikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar nimalardan iborat?
5. Issiqxonalar maydonini ko‘paytirish va uning mohiyatini qanday asoslaysiz?
6. Ekinlarni sug‘orishda tomchilatib sug‘orish usulini kiritilishi bizga qanday afzallik beradi?
7. Mevachilikda intensiv bog‘lar maydonini yildan-yilga oshirib borishning ahamiyatini qanday tushunasiz, intensiv bog‘larni mahalliy bog‘lardan ustun jihatlarini asoslab bering.
8. Takroriy ekinlar deganda nimani tushunasiz va takroriy ekin yetishtirish samarasini asoslab bering.
9. Uzumchilikni rivojlantirish, suv bilan kam ta’minlangan yerlarda tokzorlar barpo etishni mohiyati nimalardan iborat?
10. Paxta maydonlarini qisqartirib, sabzavot-poliz ekinlari maydonlarini oshirish to‘g‘risida qanday fikr bildirasiz?
11. Aholini yil davomida sabzavot va ko‘katlar bilan ta’minlashda va eksportbop mahsulot yetishtirishda issiqxonalarning o‘rni?
12. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlashda yirik hajmlisovutgichlar va muzlatgichlarni ahamiyatini izohlang.
13. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini dastlabki va to‘liq qayta ishslash deganda nimani tushunasiz?
14. Qishloq xo‘jalik ekinlarini o‘g‘itlash, o‘g‘itlarning ahamiyati, turlari, qo‘llash muddatlari va usullariga izoh bering.
15. Tuproqlarni eroziyadan, sho‘rlanishdan va ifloslanishdan asraydigan texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?
16. O‘simliklarni himoya qilishda biologik usulni mohiyati nimada?
17. Paxtachilikda hozirgi vaqtida qanday istiqbolli navlar yetishtirilmoqda?
18. G‘allachilikda yetishtirilayotgan intensiv tipdagi yumshoq bug‘doy navlari va ularning biologik potensiali to‘g‘risida tushunchaga bering.
19. Sabzavotchilikda to‘qsonbosti ekin degan tushunchaga misollar asosida izoh bering.

20. Tuproqqa ishlov berish usullarini izohlang.
21. O'simliklarni himoya qilishda kimiyoiy usulni afzalliklari va kamchiliklariga izoh bering.
22. Dehqonchilik tizimi nima? Dehqonchilikning asosiy qonunlariga ta'rif bering.
23. Yerning meliorativ holati deganda nimani tushunasiz?
24. Tuproqning agrokimyoviy kartogrammasi va shu asosda o'g'it berishni differensiallashtirish nima?
25. O'simliklarni oziqlanishida asosiy o'rin tutadigan oziqa elementlari va ularning roli?
26. Eksportbop mahsulotlar yetishtirishga qo'yiladigan talablar va mahsulotlarni standartlar asosida yetishtirishning ilmiy asoslari nimalardan iborat?
27. Logistika deganda nimani tushunasiz va uni qishloq xo'jaligidagi ahamiyati nimalardan iborat?
28. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va elektrlashtirishni ahamiyati va o'rni.
29. Ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etishni fermer xo'jaligiga nisbatan afzalliklari nimalardan iborat?
30. Mahsulotlarni dastlabki qayta ishlash bilan to'liq qayta ishlashni farqi va mohiyatini izohlab bering.